

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

A.K.Kirgizbayev

2023 yil "28" 04

*Ro'yxatga olindi: № MD-70111301-1.02*

2023 yil "28" 04

MUSIQASHUNOSLIK TARIXI VA NAZARIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lism

Ta'lism sohasi: 110000 – Ta'lism

Magistratura mutaxassisligi: 70111301- Musiqa ta'limi va san'ati

<b>Fan modul kodi</b> MTN205	<b>O‘quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr</b> 3	<b>ECTS-Kreditlar</b> 5	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek /russ		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
1.	Musiqashunoslik tarixi va nazariyasi	60	90	150
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> – bo‘lajak magistrlarga musiqashunoslik asoslari va musiqa qonuniyatlari haqida tasavvur hosil qilish, hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni oliv va o‘rtta maxsus bilim yurtlarida olib boriladigan ilmiy-pedagogik faoliyatda qo‘llay olish tajribasini orttirish bosh maqsadlardan biridir</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – «Musiqashunoslik tarixi va nazariyasi» fani mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarni ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatga tayyorlash; bolajak ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat uchun musiqiy-pedagogik bilimlarni sistemali ravishda o‘rganish; musiqashunoslik va musiqiy-pedagogika soxalari haqida keng qamrovli ma’lumotlarga ega bo‘lish; musiqiy-yestetik va musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlarlikni shakllantirish; musiqiy-yestetik qarashlar, did va talablarni shakllantirish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu Musiqashunoslik fan sifatida.</b></p> <p>Musiqashunoslik fan sifatida. Gumanitar va ijtimoiy fanlar qatorida musiqashunoslikning alohida o‘rni. Musiqiy-ilmiy fanlar tasniflanishining turlari (G. Adler, X. Dreger, V. Viora tasniflari). Musiqa haqidagi zamonaviy fanda nazariy va tarixiy musiqashunoslikka bo‘linish. Nazariy musiqashunoslik va uning musiqaning asosiy unsurlariga mos tarzdagi asosiy ilmiy fanlari (garmoniya, polifoniya, ritmika, metrika, melodika, cholg‘ulashtirish). Nazariy va tarixiy musiqashunoslikka bo‘linishning shartliligi. Istalgan ob’ektni anglab etishda mantiqiy va tarixiy uslublarning sintezi. Tarixiy va nazariy musiqashunoslik bilan metodologik jihatdan tutashib ketuvchi, mustaqil ilmiy soha sifatidagi musiqiy folkloristikaning alohida ajralib chiqishi.</p> <p><b>2-mavzu. Musiqashunoslik tarixi.</b></p> <p>Qadimgi yunon nazariyotchilari va ularning yutuqlari (Pifagor tomonidan bizning eragacha 6 asrda akustik tizimning yaratilishi; bizning eragcha 4 asrda</p>			

Aristoksenning tinglab qabul qilish asosidagi intervallarni baholash mezoni; etos haqidagi ta’limot). Matematik va kosmologik qiyoslashlar – O’rta asr musiqa nazariyasining asosi. XI asrda Gvido d’Arezzo tomonidan nota yozuvining isloh qilinishi. Franko Kelnskiy va Marketto Paduanskiy asarlarida tersiyani nomukammal konsonans sifatida tan olinishi. «Ars nova» traktati (1320 yil) va uning ilk Uyg’onish harakati bilan bog’liq musiqaning yangi yo‘nalishidagi ahamiyati. Uyg’onish davri nazariyotchilar tomonidan tonal garmoniya asoslarining yaratilishi. Sarlino va G. Galiley asarlari va ularning polifonik yozuv texnikasi, matn va musiqa mutanosibligini asoslashdagi ahamiyati.

### **3-mavzu. Rossiyada musiqashunoslik.**

XV asrda ilmoqli yozuvni o‘rganish bo‘yicha birinchi alifbolarning paydo bo‘lishi. I. G. Korneevning «Musikiya» (XVII asrning 60-yillari) va N. P. Doreskiyning «Musikiya grammatikasi» (XVII asrning 70-yillari) asarlari – musiqa haqidagi ratsional bejirim va tugallangan ta’limot yaratish yo‘lidagi birinchi urinishlar. M. V. Lomonosov va A. P. Sumarokov asarlarida musiqa janrlari tabiatini, musiqa va poeziyaning munosabati haqida bildirilgan fikrlar. A. N. Serov, V. V. Stasov va G. A. Larosh faoliyati – rus musiqashunosligi rivojlanishidagi yangi davr. Rus musiqasi klassiklari haqida monografik asarlar (M. I. Chaykovskiyning «P. I. Chaykovskiy hayoti» asari). V. G. Karatigin, G. P. Prokofev, A. V. Ossovskiy, Yu. D. engelning tanqidiy-biografik asarlari, B. V. Asafevning A. K. Lyadov, S. I. Taneev, A. K. Glazunov, A. N. Skryabin, S. V. Raxmaninov ijodi haqidagi asarlari. Rus kompozitorlarining turli musiqiy-nazariy fanlar bo‘yicha yozgan ishlari (M. I. Glinkaning «Cholg‘ulashtirish haqida qaydlar», P. I. Chaykovskiy va N. A. Rimskiy-Korsakovlarning Garmoniya darsligi, S. Taneevning «Qat’iy yozuv harakatli kontrapunkti» - 1909 y., «Kanon haqidagi ta’limot» - 1929 y. asarlari). B. L. Yavorskiy tomonidan «Musiqiy bayon etishning tuzilishi» asarida ladli ritm nazariyasining yaratilishi 1908y.

### **4-mavzu. XX asrda nazariy musiqashunoslik.**

Nazariy musiqashunoslilik alohida sohalarining ishlab chiqilishi. G. Katuarning «Garmonianing nazariy kursi» 1925 y. B. Sposobin, S. evseev, Yu. N. Tyulin darsliklari. Yu. N. Tyulin tomonidan o‘zgaruvchan funksiyalar nazariyasining yaratilishi, S. Skrebkov, Yu. P. Xoloponlarning zamonaviy garmoniya masalalariga bag‘ishlangan ishlari. L. Mazelning «Klassik garmoniya muammolari» asarining tadqiqotning nazariy jihatini tarixiy va estetik jihatlar bilan uyg‘unlashtiruvchi, XVIII asrdan boshlab garmoniya tafakkuri evolyusiyasini yoritilishidagi ahamiyati. V. Protopopovning polifoniya tarixi bo‘yicha turkum ishlari. A. N. Dmitriev, S. V. evseev asarlarida polifoniya masalalarining yoritilishi.

### **5-mavzu. XX asrda tarixiy musiqashunoslik**

B. N. Asafev asarlari («Simfonik etyudlar», XIX asr boshlarida rus musiqasi»), musiqa klassikasining taniqli ustalari ijodi haqida monografik tadqiqotlar – ularning XX asr musiqiy-tarixiy fanidagi ahamiyati. Rus musiqasi

klassiklari haqida monografik asarlar (B. V. Asafev Glinka haqida, M. S. Pekelis Dargomijskiy haqida, N. V. Tumanina Chaykovskiy haqida, A. N. Soxor Borodin haqida, G. N. Xubov Musorgskiy haqida, A. A. Solovsov Rimskiy-Korsakov haqida, L. A. Baremboym A. G. Rubinshteyn haqida). Taniqli kompozitorlar ijodi haqida tanqidiy-biografik, tahliliy ocherklar (I. B. Nestev, M. e. Tarakanov, S. M. Slonimskiy S. S. Prokofev haqida; V. P. Bobrovskiy, L. V. Danilevich, M. D. Sabinina D. D. Shostakovich haqida; A. Ikonnikov, T. P. Livanova Myaskovskiy haqida; G. N. Xubov A. I. Xachaturyan haqida; A. N. Soxor G. Sviridov haqida).

## **6- mavzu. O‘zbekistonda musiqashunoslik**

Musiqa haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lgan ilk yozma manbalar: A Forobiyning «Musiqa haqidagi katta traktati», Al Xorazmiyning «Bilimlar kaliti» («Mafotix al-ulum»), Ibn Sinoning «Shifo kitobi» («Kitob ush Shifo»), «Bilimlar kitobi» («Donishnama») asarlari. Abdurahmon Jomiyning «Risolai musiqa» traktati (15 asr) va unda ko‘riladigan asosiy masalalar (musiqaning inson ruhiga ta’siri, qadimiylar tarkibining yoritilishi, ritm va musiqiy etos haqida ta’limot. O‘zbekiston olimlari – A. N. Azimova, S. P. Galiskaya, S. A. Zakhirjevska, T. e. Solomonova, N. A. Axunjonova, F. Sh. Muxtorova va boshqalarning nazariy musiqashunoslik sohasidagi ishlari. A. N. Azimovaning «Garmoniya», T. Qurbonovning «Polifoniya darsligi», A. I. Petrosyansning «Cholg‘ushunoslik» darsliklari. S. Vohidovning «O‘zbek qo‘srig‘i», A. Voxidovning «G. Mushel prelyudiya va fugalarining uslubiy xususiyatlari», A. Korsakovaning «O‘zbek opera teatri», N. S. Yanov-Yanovskayaning «O‘zbek simfonik musiqasi», Ya. B. Pekkerning «O‘zbek operasi», L. Jumaeva va N. Bahriiddinovalarning «O‘zbek xor musiqasi» asarlarida alohida janrlarning tadqiqot qilinishi.

## **7-mavzu. Musiqiy intonatsiya va musiqaning intonatsion tabiatining mohiyati haqidagi ilmiy tadqiqotlar.**

«Kuy intonatsiyasi»ning «nutq intonatsiyalari» bilan muvofiqlashtirish haqidagi fikrlar shakllanishida antik dunyoning musiqa nazariyasi va estetikasi (Aristotel, Dionissiy Galikarnasskiy), O‘rta asrda (Jon Kotton), Uyg‘onish davrida (G. Galiley), Ma’rifat davrida (J. Russo, D. Didro) 19-asr rus kompozitorlari va tanqidchilar (A. Dargomijskiy, A. N. Serov, M. P. Musorgskiy, V. V. Stasov) asarlari va aytib o‘tgan fikrlarida intonatsiya nazariyasining rivojlanishi.

## **8-mavzu. Asafevning intonatsiya nazariyasi musiqiy tafakkurning xususiyati haqidagi ta’limot sifatida.**

B. Asafevning «Musiqa shakl jarayon sifatida» asarining intonatsiyaning musiqiy tafakkurning xususiyati sifatidagi ta’limotni yaratishdagi ahamiyati. Melos, birlamchi tushuncha sifatida musiqiy tafakkur xususiyatini belgilab beradi. Nutq va musiqiy intonatsiyalash muammolari. Ritm va tembr intonatsion hodisa sifatida. «Intonatsiya lug‘ati», «intonatsiya inqirozi», «intonatsiya o‘zgarishi», «intonatsiya hissasi» tushunchalari. Uslub intonatsion nazariyasining yaratilish yo‘llari. Intonatsiyalash nazariyasining umumestetik

muammolari.

#### **9- mavzu. Musiqiy tafakkurning universal qonuniyatları.**

Musiqaning umumiy mantiqini tan olinishi asosida xalq va klassik musiqa san'ati an'analarining tarixiy izchilligi muammosi. Musiqa universal toifalari va voqeligi umumiy tizimining tavsifi. Musiqaning ixtisoslashtirilgan va xususiyatli universal toifalari.

#### **10-Mavzu. Musiqiy uslub tushunchasi.**

Musiqada uslub tushunchasi. Uslub tushunchasini ko'p qirraliligi. Musiqiy asarda-mavzuiylik, musiqiy til va tuzilish- dramaturgik birlik sifatida namoyon bo'lishi. Musiqiy uslub komponentlari. Musiqada mantiqiy yondashuv. Yevropa musiqasi tarixida beshta uslubiy davrlar.

#### **11-Mavzu. Uslubni vujudga kelishi.**

Ohang barqarorligi ladni asosi sifatida. Metro-ritmik garmoniyaning tashkil topishi. Faktura sohasida ostinatolilik tamoyili.

#### **12-Mavzu.Uyg'onish davri uslubi.**

Lad sohasida o'zgaruvchanlik tamoyili. O'zgaruvchan lad funksiyalari tushunchasi. Polifoniyaning to'rt turi. Filip XIV asr musiqiy uslub xususiyatlar: Fililip Vitr va Giyom Masho ijodida misolida.

#### **13-Mavzu. Yuqori uyg'onish davri uslubi.**

Yuqori uyg'onish davri musiqasida dramaturgik tamoyillar. Reprizasiz ikki qismli –tipik shakl sifatida. Joskin Depre ijodi. Palestrina ijodi.

#### **14-Mavzu. Barokko uslubi.**

Yakkaxonlar kuylashi uchun mo'ljallangan, operadagi musiqiy mavzuiylikni yangi turini vujudga kelishi. Markazlashtiruvchi birlik tamoyili- musiqiy mantiqning yangi tamoyili sifatida. Gomofoniya-fakturaning yangi turi sifatida. Fakturaning yangilanishi. Mavzuning uchta uslubiy turi.

**15-Mavzu. Monteverdidan Baxgacha uslub evolyusiyasi.** "Plach Ariadny"- o'ziga xos kontrast-tarkibli shaklga misol.Syuitali va turkumli shakllarda kontrastning yangi turi. Vivaldi va Bax konsertlari birinchi qismida modulyatsion rondo. Intermedik materialni sonata-reprizali tasdiqlanishi.

### **III.Seminar mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Musiqashunoslik fan sifatida.
2. Musiqashunoslik tarixi.
3. Rossiyada musiqashunoslik.
4. XX asrda nazariy musiqashunoslik.
5. XX asrda tarixiy musiqashunoslik
6. O'zbekistonda musiqashunoslik
7. Musiqiy intonatsiya va musiqaning intonatsion tabiatining mohiyati haqidagi ilmiy tadqiqotlar.
8. Asafevning intonatsiya nazariyasi musiqiy tafakkurning xususiyati haqidagi ta'limot sifatida.
9. Musiqiy tafakkurning universal qonuniyatları.

10. Musiqiy uslub tushunchasi.
11. Uslubni vujudga kelishi.
12. Uyg'onish davri uslubi.
13. Yuqori uyg'onish davri uslubi.
14. Barokko uslubi.
15. Monteverdidan Baxgacha uslub evolyusiyasi.

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

O'rganilayotgan fan bo'yicha magistrlarga mustaqil ishni tashkil etish uchun quyidagi ish shakllari tavsiya qilinadi:

- darslik va o'quv qo'llanmalardagi tegishli bo'lim va mavzular konspektini tuzish;
- fanning berilgan bo'limi bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan ishlash;
- ma'ruzaning ma'lum bo'limi uchun tarqatilgan material bilan tanishuv;
- musiqiy materialni o'rganish va tahlil qilish;
- tahlil qilinayotgan musiqiy asarlardan namunalar ijro etish;
- ijodiy va muammoli mustaqil vazifalarni bajarish;
- masofali o'qish;
- 

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar .**

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

- 1.Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
2. Musiqashunoslik fan sifatida.
- 3.Musiqashunoslik tarixi.
- 4.Rossiyada musiqashunoslik.
- 5.XX asrda nazariy musiqashunoslik.
- 6.XX asrda tarixiy musiqashunoslik
- 7.O'zbekistonda musiqashunoslik
- 8.Musiqiy intonatsiya va musiqaning intonatsion tabiatining mohiyati haqidagi ilmiy tadqiqotlar.
- 9.Asafevning intonatsiya nazariyasi musiqiy tafakkurning xususiyati haqidagi ta'limot sifatida.
- 10.Musiqiy tafakkurning universal qonuniyatları.
- 11.Musiqiy uslub tushunchasi.
- 12.Uslubni vujudga kelishi.
- 13.Uyg'onish davri uslubi.
- 14.Yuqori uyg'onish davri uslubi.
- 15.Barokko uslubi.
- 16.Monteverdidan Baxgacha uslub evolyusiyasi.
- 17.Bax uslubi. Baxning turkumli janrlari.
- 18.Mosart uslubi.
- 19.Betxoven uslubi..
- 20.Shopen uslubi.
- 21.Mavzu. Glinka uslubi.
- 22.Mavzu. Wagner uslubi..

	<p>23.Musorgskiy uslubi.      24. Stravinskiy uslubi.      25.Tematizm turlari va uning rivojlanish tamoyillari.      26. Shakl tashkil qiluvchi asosiy tamoyillar va kompozitsiyaning ba'zi turlari.      27. O'zbek qo'shiqli simfonizmi.      28. Shakl sohasidagi gomofon-garmonik va polifonik yozuvning o'zaro munosabati.      29.Balet va simfoniya janrlari sintezi.      30.O'zbek simfonizmi turlari (dasturiy va nodasturiy).</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan nota daftarida musiqa elementlarini tuzish, ularni fortepianoda chalib taqdimot qilish tavsiya etiladi</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Fanini o'rganish natijasida magistrant quyidagi bilim, ko'nikma va tasavvurlarga ega bo'lishi lozim: musiqashunoslik nazariyasi va tarixi haqida; musiqaning umumiyligi qonuniyatlarini o'zida aks ettirgan musiqashunoslikning universal kategoriyalari haqida (musiqiy qabul qilish, musiqiy intonasiya, musiqiy shakl, kompozisiya va dramaturgiya, mavzu va mavzuiy umumlashtirish usullari, mavzularning o'zaro ta'siri, dramaturgiya shakllari, gomofon-garmonik va polifonik yozuvning shakllar soxasida o'zaro munosabatlari haqida <b><i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i></b>;</li> <li>• Musiqa asarining hislatlariga to'g'ri baho berish va bo'lajak ilmiy-pedagogik faoliyatda qo'llay bilish; musiqashunoslik nazariy tushunchalarini uning badiiy-timsoliy ko'rinishini ma'lum asarlarda o'zaro bog'lay olish; ma'ruzalar matnini tuzishni bilish, musiqiy-pedagogik adabiyotlar bilan ishlay olish va ma'ruza-targ'ibot ishlarini olib borishni <b><i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i></b>;</li> <li>• Musiqashunoslikning nazariyasi bo'yicha bilimlarni musiqiy-pedagogik faoliyatda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lish; shu bilimlarni musiqiy targ'ibot va konsert ijrochilik faoliyatlarida ham qo'llay olish <b><i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i></b>.</li> </ul>

<p><b>4.</b></p> <p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>5.</b></p> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
<p><b>6.</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ройтерштейн М. Основы теоретического музыковедения. М., Музыка., 2003 г.</li> <li>2. Кадырова Н. «Тематизм и форма в симфонической музыке Узбекистана.» Т., Гафур Гулям. 2004</li> <li>3. Скребков С. С. Художественные принципы музыкальных стилей. Санкт – Петербург.2018</li> <li>4. Тригулова А.Х. Тексты лекций по курсу «Теория и история музыковедения» Т., ТГПУ им. Низами 2021</li> <li>5. Тригулова А.Х. «Мусиқашунослик асослари бўйича маъруза матнлари». Низомий номидаги ТДПУ ., 2020</li> </ol> <p><b>Qo‘sishma adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11</li> <li>2.Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017y.</li> <li>3.Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016y.</li> <li>4.Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2016y.</li> <li>5.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova:</li> </ol>

	<p>“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.</p> <p>6.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2014. – 46</p> <p>7.Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma’lumotnoma), Toshkent, “Musiqa”, 2007.</p> <p>8.Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo‘yicha mashq va vazifalar to‘plami. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2006.</p> <p>9.Rahimov Q. Garmoniya bo‘yicha mashq va masalalar to‘plami. «Aloqachi», 2005.</p> <p>10.Азимова А.Н. « Учебник гармонии», Т., Гафур Гулям 1999 .</p> <p>11.Азимова А. Н. «Гармония дарслиги». Т.,Гофур Гулом 1999 .</p> <p>12.Глинский В.Б.Полифония. Хрестоматия по полифоническому анализу. Т., Гафур Гулям. 2004</p> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <p>13. <a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a></p> <p>14. <a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a></p> <p>15. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p> <p>16. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a></p> <p>17 <a href="http://tdpu-intranet.Ped">tdpu-intranet.Ped</a></p>
7.	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil “ <u>28</u> ” <u>03</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sul:</b></p> <p>A.X.Trigulova – Nizomiy nomidagi TDPU, “Musiqa nazariyasi va metodikasi ” kafedrasи dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Qodirov R. G. – O‘zbekiston davlat konservatoriyasining professori.</p> <p>Nurmatova M, A. N - Ur DU «Musiqiy talim» kafedrasи katta o qituvchisi</p>

*Neosige nazaryast so metoddikas  
referencia needzasi. D. karomo va bu*





